



Aliqulova Nilufar Zoirovna

“Termiz” Davlat muzey-qo’riqxonasi

Fond ishi bo’limi katta ilmiy xodimi

**DALVARZINTEPA MANZILGOHIDA TADQIQOT OLIB BROGAN OLIMLAR
XULOSALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo hududida joylashgan Dalvarzintepa manzilgohi va unda olib borilgan tadqiqotlar xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Dalvarzintepa harobasi, Surxon vohasi, davlatchilik tarixi, M.E.Masson

Dalvarzintepa - Kushon podshohlarining qarorgohi Kushon imperiyasi davridagi (eramizning I-IV asrlari) yodgorliklar orasida Termizdan 60 km uzoqlikda, Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumanida joylashgan qadimgi Dalvarzintepa shaharchasi alohida o‘rin egallaydi. Ushbu obyektni batafsil o‘rganish 1967 yilda tarixchilar Galina Pugachenkova va M.E. Masson tomonidan boshlangan. Qadimgi shaharning shimoliy qismida Baqtriya ma’budi ibodatxonasi va noyob rasmlar topilgan. Miloddan avvalgi I asrning boshlarida barpo etilgan budda ibodatxonasining xarobalari topilgan, bu O‘zbekistonidagi eng qadimgi buddaviylar binosi hisoblanadi. Kushon imperiyasi davrida bu yerda shaharlar, tumanlar va turar-joylar gullabyashnagan. 1972 yilda ko‘hna shaharchaning qadimgi mavzelari o‘rganilayotganda, uy deb taxmin qilinayotgan binolardan birida, og‘irligi 36 kg bo‘lgan oltin buyumlar xazinasi topilgan.

Dalvarzintepa — qadimgi shahar harobasi. Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanı markazi — Sho‘rchi shimolidan 10 km shimoli-sharqda joylashgan. Maydoni 47 ga. Dalvarzintepa 2 qismdan: qudratlil mudofaa devori (qalinligi 10 m.gacha) bilan o‘rab olingan shoh saroy qal‘asi va shaharning o‘zidan iborat. Shahar ham mudofaaning istehkomli tizimiga ega bo‘lib, bu yerda aslzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilishgan. O‘zbekiston san’atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining san’atshunoslik ekspeditsiyasi Dalvarzintepada 1962 y. dastlabki tekshiruv ishlarini va 1967 y.dan buyon muntazam arxeologik qidiruv ishlarini olib boradi. Dushanba sh.da „Kushonlar davrida Markaziy Osiyo“ mavzuida o‘tgan xalqaro simpoziumi (1968) da ekspeditsiya topilmalari (haykallar, kulolchilik buyumlari, shahar mudofaa inshootlarini o‘rganish natijalari va h.k.) asosida Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o‘rnida bo‘lgan, degan faraz oldinga surilgan edi.

1967-yilda professor G.A. Puganchekova:“ Samarqand yaqinidagi qadimgi Afrosiyob xarobalari qazib tekshirilganda unda 17 ta madaniy qatlama borligi aniqlangan. Dalvarzintepa – antiqa antik shahar, undagi madaniy qatlama 2 – 3 tadan oshmaydi. Bu yirik tapalikning istalgan joyini qazib ko‘rsangiz, birdaniga qadimgi yodgorlik namunalariga duch kelasiz. Kushoon sultanati davrida Dalvarzin atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralgan. Uning atrofidagi katta xandaqlar suv bilan to‘ldirilgan”, – deb yozadi. Katta Dalvarzin shahrining mudofaa devorlari qalin paxsa va xom g‘ishtdan tiklangan. Bu devorning qalinligi 8 – 10 metr bo‘lgan. Devorning ba’zi joylarida mustahkam istehkomlar, burjlar va askarlar yurishi uchun maxsus yo’laklari bor edi. Dalvarzintepadan mil. avv. I asrga oid tasviriy san’at namunalari topilgan. Noyob sopol parchalarida ot choptirib borayotgan askarlar tasvirlangan. 1972-yilning kuzida misli ko‘rilmagan oltin buyumlar xazinasi va dunyyoda eng qadimgi hisoblangan 2ta shaxmat donasi topilgani katta shov-shuv bo’ldi. Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari milodiy II asrga taalluqlidir. 1972-yil 25-sentabrda Dalvarzintepada unutilmas voqeа yuz berdi: bir ko‘za tilla taqinchoq va yombilar xazinasi topildi. B. Turg‘unov, Eduard Rivaladze, T. Belyayeva, talaba Erkin Jo‘rayev va Anatoliy Sa’dullayev tilla buyumlarni birma-bir sanab, yombillardagi yozuvlarni ko‘chirib yozib, ikki nuxsada dalolatnomaga tuzdilar. Tillal xazina jami 115ta: munchoq shodasi, bo‘yinga taqiladigan 2ta pekto kamar to’qasi, bilakuzuk bo’lakchalari, shildiroq shaklidagi taqinchoqlar, sirg’a,



kulchasimon oltin buyumlar, to’rtburchak yombi va boshqa ashyolardan iborat edi. Bu xazinaning og’irligi 35 kg 712 gr 13 mg edi. Garchi Dalvarzintepa xazinasidagi ayrim taqinchoqlar Afg’oniston, Hindiston va Pokistondan topilgan taqinchoqlarga o’xshab ketsa-da, ammo ularning Shimoliy Baqtriya, ya’ni hozirgi O’zbekiston janubida yashagan ustalar tomonidan tayyorlanganligi shubhasizdir. Dalvarzintepa xazinasidagi ajdodlarimizning qo’shni xalqlar va mamlakatlardan qadimdan savdo-sotiq va madaniy aloqada bo’lganligidan darak beradi. Dalvarzin xazinasidagi Markaziy bankka topshirildi. O’zbekiston kompartyiyasi Markaziy komitetining bosh kotibi Shrof Rashidov qadimshunoslar bilan uchrashdi. 1973-yil 2-aprelda bu topilmalar bo’yicha matbuot konferensiyasi o’tkazildi. Shundan so’ng G.A. Puganchenkovning “Dalvarzintepaning badiiy xazinasidagi” kitobi rus va fransuz tillarida nashr etildi. Murodjon Mahmudovning “Yombi” qissasi chop etildi. Yapon olimi, professor Kyudzo Kato yodgorlikni o’rganishda jonbozlik ko’rsatdi. U 2002-yilda “Do’stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Hozirda Dalvarzin yaqinidagi 43-maktabga Markaziy Osiyo budda madaniyatini o’rgangan olim – Kyudzo Kato nomi berilgan. Tatyana Belyayeva va Bahodir Turg’unovlar dalvarzintepa sirlarini ochishda salmoqli hissa qo’shganlar. Yillar o’tdi. Dalvarzin shahri yirik Kushon sultanatinining birinchi poytaxti ekanligi butun dunyo arxeologlari, tarixchilar tomonidan e’tirof etildi. O’zbekiston Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti xodimlarining Dalvarzintepada olib borgan ilmiy tekshirish ishlari tufayli ajdodlarimiz tarixining hozirgacha bizga noma’lum bo’lgan yangi sahifalari ochildi. Buyuk Kushon sultanati madaniyatini jahonga tarqaldi. Dalvarzintepadan topilgan yana bir topilmani e’tirof etishimiz kerak: 1867-yil bahorida mexanizator N. Murodov Dalvarzintepaning shimolidagi uncha katta bo’lmagan tepalikni surayotgan chog’ida tuproq orasidan odam boshi haykali chiqib qoldi. Bu Buddha haykali edi. “O’zbekiston – buyuk yo’llar va svilizatsiyalar chorrahasi. Imperiyalar, dinlar, madaniyatlar” mavzusida madaniy meros haftaligi doirasida Termiz shahrida “O’zbekiston – svilizatsiyalar chorrahasi” xalqaro arxeologik va sayyohlik forumi bo’lib o’tdi. Forumga o’zbekistonlik va saksondan ortiq xorijiy davlat olimlari, arxeologlari, muzey va institut rahbarlari kelishdi. Fransiya Milliy ilmiy tadqiqotlar markazi professori P. Lerish: “Jahon svilizatsiyasi tarixini o’rganishda Surxon daryodagi tarixiy yodgorliklar muhim o’ringa ega. Jumladan, Teshiktosh g’ori, Zarautsoy yodgorligi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Jarqo’ton, Xolchayon, Qoratepa va Fayoztepa singari obidalar o’z bag’rida ne-ne sinoatlarni saqlab kelmoqda. O’tgan yili mahalladagi 43-umumta’lim maktabiga yaponiyalik hassos professor Kyudzo Kato nomi berilib, buyuk qadimshunosning noyob topilmalari o’rin olgan muzey tashkil etildi. Ayni paytda qadimshunos yashagan hovlini ta’mirlab, uning hayotini aks ettiruvchi uy muzeyiga aylantirish bo’yicha loyiha ishlari olib borilmoqda. Avtoturargoh va sanitariya-gigiyena shoxobchasini qurish uchun yer maydonlari ajratildi. 43-umumta’lim maktabini yapon usulida mukammal ta’mirlash yuzasidan loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanayotir. Ushbu ta’lim muassasasi negizida Kyudzo Kato nomidagi yapon va ingliz tillarini chuqur o’rganishga ixtisoslashtirilgan «Yosh arxeologlar» maktabining nizomi tayyorlanib, davlat ro’yxatidan o’tkazish choralar ko’rilmoxda. Mahalliy va xorijlik qadimshunoslar Dalvarzintepada qariyb oltmish yildan buyon arxeologik tadqiqot olib borib, bu yerda qadimgi shahar zodagonlari uylari, ishlab chiqarish inshootlari, shu jumladan kulol ustalar mahallasi va xumdonlar, diniy inshootlar, shaharning buddaviylik ibodatxonalar, mudofaa istehkomlarini atroflicha o’rgangan. Ko’plab arxeologik ashyoviy manbalar jumladan, yuksak did bilan yaratilgan badiiy san’at namunalari, badiiy metall buyumlar va hunarmandchilik namunalarini topishgan. Buddha ibodatxonasining qoldiqlari, buddanining boshi, qimmatbaho fil suyagidan tayyorlangan shaxmat donalari, gipsdan ishlangan nafis haykallar, mis tangalar, mis ko’zgular, fil suyagidan tayyorlangan taqinchoqlar, shoshqol o’yin donalari singari topilmalar bu makonning qadimdan go’zal shahar va qasrlarga ega madaniyat, san’at, tijorat rivojlangan hudud bo’lganini jonli hikoya qiladi. Turli madaniyat va dinlar hamda buyuk imperiyalar tarixi bu zamin o’tmishi bilan chambarchas bog’liq ekan, uni qiyosiy o’rganish hayotiy zaruriyatdir”, – dedi o’z nutqida. Tamaddun beshigi bo’lgan Surxon zaminidagi yodgorliklar o’zining qadimiyligi bilan mashhur. Viloyatimizdagi 359ta tarixiy yodgorliklarning 234tasi arxeologik yodgorliklar sirasiga kiradi. Yodgorliklarimizni o’rgangan inson qalbida jonajon Vatanimizga, bunyodkor, tanti va saxovatli xalqimizga bo’lgan mehri yanada ortadi, shu yurt farzandi ekanidan qalbi cheksiz faxr va iftixorga



to'ladi, O'zbekistonimizning tarixi va o'tmishi naqadar buyuk ekanligini yana bir bor anglaydi. Zero, tarix xalqqa ma'rifat beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G.A. Pugachhenkova va boshqalar. Dalvarzintepa – O'zbekiston janubidagi Kushonlar shahri. 1978
2. Turob Eshboyev. Sho'rchi shuhrati va inson qudrati. Toshkent – 2007;
3. Meros.uz.“ Kushon davlatining kelib chiqishi”